QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.009

KASBIY-AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, TARKIBIY QISMLARI VA KOMPETENSIYAVIY ASOSLARI

Sultonov Sherzod Elmuratovich
Qo‘qon davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyati tushunchasining mohiyati, tarkibiy komponentlari va kompetensiyaviy asoslari tahlil qilingan. Kompetentlilik va kompetensiya kategoriyalari, TUNING loyihasidagi tuzilma, pedagogika ta’lim yo‘nalishi Davlat ta’lim standartidagi kasbiy-axloqiy madaniyatga bevosita aloqador talablar o‘rganilgan. Kasbiy-axloqiy madaniyatning aksiologik, kognitiv va faoliyatli-ijodiy komponentlari, uni baholash mezonlari hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy-axloqiy madaniyat, kompetentlilik, kompetensiya, pedagogik deontologiya, tarkibiy komponentlar, mezonlar, kasbiy-axloqiy tayyorlik.

Аннотация. В статье анализируются сущность понятия профессионально-этической культуры будущих учителей, её структурные компоненты и компетентностные основы. Рассмотрены категории компетентности и компетенции, структура компетенции в проекте TUNING, требования государственного образовательного стандарта по направлению «Педагогическое образование», непосредственно связанные с профессионально-этической культурой. Раскрыты аксиологический, когнитивный и деятельностно-творческий компоненты профессионально-этической культуры, критерии её оценки, а также внешние и внутренние факторы развития.

Ключевые слова: профессионально-этическая культура, компетентность, компетенция, педагогическая деонтология, структурные компоненты, критерии, профессионально-этическая готовность.

Abstract. The article analyses the essence of the concept of professional and ethical culture of future teachers, its structural components and competency-based foundations. The categories of competence and competency, the structure of competence in the TUNING project, and the requirements of the state education standard in the field of teacher education that are directly related to professional and ethical culture are examined. The axiological, cognitive and activity-creative components of professional and ethical culture, the criteria for its assessment, and the external and internal factors of its development are described.

Keywords: professional and ethical culture, competence, competency, pedagogical deontology, structural components, criteria, professional and ethical readiness.

KIRISH. Raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida kasbiy axloq alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi kasbi esa boshqa kasblardan o‘zining ijtimoiy mas’uliyati bilan ajralib turadi: pedagog faoliyatining natijasi yosh avlod shaxsining shakllanishida namoyon bo‘ladi. Prezidentning 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli qarori va 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli qarorida pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan .

Ilmiy adabiyotlarda “kasbiy madaniyat”, “pedagogik madaniyat”, “kasbiy-pedagogik madaniyat” tushunchalari keng o‘rganilgan, biroq “kasbiy-axloqiy madaniyat” kategoriyasining mazmuni, tarkibi va uni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ko‘plab tadqiqotlarda bu hodisa “pedagogik odob”, “kasbiy etika”, “pedagogik deontologiya” atamalari ostida alohida jihatlari bo‘yicha yoritiladi. Maqolaning maqsadi kasbiy-axloqiy madaniyat tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish, uning tarkibiy komponentlarini asoslash hamda kompetensiyaviy asoslarini ko‘rsatib berishdan iborat. Kasbiy axloq masalalari pedagogik deontologiya doirasida o‘rganiladi. Deontologiya atamasi dastlab I. Bentam asarlarida axloq haqidagi fan sifatida qo‘llangan. Pedagogik deontologiya masalalari K.M. Levitan, E.V. Neumoeva-Kolchedantseva va K.M. Kertaeva asarlarida yoritilgan. Deontologik va axloqiy me’yorlarning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni xorijiy tadqiqotlarda ham o‘rganilgan: o‘qituvchilar axloq kodekslari va ularning kasbiy mustaqilligi , kasbiy etikani ta’lim jarayonida o‘rgatish yo‘llari shular jumlasidandir.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan N. Muslimov kasbiy shakllanishni shaxs kamolotining muhim tarkibiy jihati sifatida talqin qiladi. N.M. Egamberdieva talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuv nuqtai nazaridan o‘rganib, “kasbiy yetuklik” tushunchasini professionallashuv jarayoni bilan bog‘laydi. Kasbiy-pedagogik madaniyatning tuzilmasi V.A. Slastenin va I.F. Isaev tadqiqotlarida qadriyatli, texnologik hamda shaxsiy-ijodiy komponentlar sifatida ajratib ko‘rsatilgan. Kompetensiyaviy yondashuv masalalari J. Raven, E.F. Zeer va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Tadqiqotda ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va modellashtirish metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, pedagogika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi Davlat ta’lim standarti mazmunan tahlil qilindi. Kasbiy-axloqiy madaniyat tushunchasining mohiyati. Tahlil natijalari kasbiy-axloqiy madaniyatni “tayyorlik” kategoriyasi bilan bog‘lab talqin qilish ilmiy jihatdan asosli ekanini ko‘rsatdi. Kasbiy-axloqiy tayyorlik o‘qituvchi shaxsining aksiologik ongini, kasbiy odob-axloq me’yorlariga muvofiq pedagogik vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning amaliy faoliyat tajribasi bilan integratsiyalashuvini ifodalaydi. Shu asosda kasbiy-axloqiy madaniyat quyidagicha ta’riflanadi: bu bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatga axloqiy jihatdan tayyorlik darajasini tavsiflovchi, o‘zaro hamkorlik sharoitida kasbiy burch va mas’uliyat talablariga rioya etgan holda asosli va samarali qarorlar qabul qilishni ta’minlaydigan bilim hamda ko‘nikmalarning shakllanganlik holatini

ifodalovchi, sub’ektga xos integrativ xususiyatlar majmuasidir. Kompetentlilik va kompetensiya. J. Raven kompetentlilikni alohida kompetensiyalar yig‘indisi sifatida izohlaydi. Tadqiqotlarni umumlashtirish asosida kompetentlilikni shaxsning integrativ sifati sifatida tavsiflash mumkin: u shaxsning ijtimoiy va kasbiy talablarni anglab qabul qilishi asosida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga hamda hayotiy faoliyatda faol sub’ekt sifatida namoyon bo‘lishga tayyorligi va layoqatini ifodalaydi. Kompetensiya esa shaxsga hayotiy va kasbiy muammolarni samarali hal etish imkonini beruvchi sifatlar va imkoniyatlar majmuasidir. U faqat operatsion jihatlar bilan cheklanmaydi, balki bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan bir qatorda motivatsion, qadriyatli va shaxsiy xususiyatlarni ham qamrab oladi.

TUNING loyihasida kompetensiya tarkibiy jihatdan uch komponentdan iborat yaxlit tizim sifatida talqin qilinadi: bilim komponenti (akademik sohalarga oid nazariy bilimlar, bilish jarayonlari, tushunish qobiliyati), amaliy komponent (bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llay olish) va qadriyatli komponent (hayotiy pozitsiya va xulq-atvorning qadriyatli-motivatsion asoslari). Bu tuzilma kasbiy-axloqiy madaniyatning tarkibiy qismlarini aniqlashda metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular o‘zaro mantiqan mos keladi. Davlat ta’lim standarti tahlili. Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi Davlat ta’lim standartida belgilangan 29 ta malaka talabidan 17 tasi mazmunan kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq kompetensiyalarni qamrab olishi aniqlandi. Kasbiy kompetensiyalar tarkibidagi 36 ta kompetensiyadan 5 tasi bevosita shu maqsadga yo‘naltirilgan:

– KK-3: o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalash, tashkil etish va samarali amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘lish;

– KK-6: ta’lim oluvchilarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlik;

– KK-7: ijtimoiy profilaktikaga oid tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishga tayyorlik;

– KK-8: shaxs rivojlanishi holatini tashxislash va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini prognozlashtirishga tayyorlik;

– KK-9: o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalash va shaxsiy kamolotga intilish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatga tayyorlik.

Bu natija kasbiy-axloqiy madaniyatni pedagog kadrlar tayyorlash tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, standart talablari asosan umumiy shaklda ifodalangani sababli, ularni kasbiy-axloqiy komponentlar bo‘yicha konkretlashtirish va baholash mezonlariga aylantirish zaruriyati yuzaga keladi. Tarkibiy komponentlar. Tadqiqot natijasida kasbiy-axloqiy madaniyat uchta o‘zaro bog‘liq komponent orqali tavsiflandi (1-jadval).

1-jadval. Kasbiy-axloqiy madaniyatning tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni

Komponent	Mazmuni
Aksiologik	Pedagogik qadriyatlar tizimi; qiziqish, intilish va ehtiyojlar; kasbiy deontologik jihatlar, ya’ni pedagogik odob; o‘z shaxsiga, kasbiga, jamiyatga, o‘quvchilarga munosabatni tartibga soluvchi axloqiy talablar
Kognitiv	Texnologik tayyorgarlik va kasbiy bilimdonlik: pedagogik texnologiyalarni bilish, subyekt–sub’ekt munosabatini tashkil eta olish, jahon va milliy pedagogik tajribani o‘rganish va integratsiyalash
Faoliyatli-ijodiy	Axloqiy qarorlar qabul qilish, kasbiy vaziyatlarda xatti-harakatni boshqarish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash, ijodiy yondashuv, kasbiy-axloqiy o‘z-o‘zini rivojlantirish

Aksiologik komponent pedagogik qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi va kasbiy deontologik, ya’ni pedagogik odobga oid xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv komponent ikki yo‘nalishni, texnologik tayyorgarlik va kasbiy bilimdonlikni mujassamlashtiradi; kasbiy-axloqiy madaniyatning poydevorini aynan pedagogik bilimdonlik tashkil etadi. Faoliyatli-ijodiy komponent shaxsiy ijodiy salohiyatning amaliyotda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq; unda o‘qituvchi o‘z faoliyatini muntazam tahlil qiladi, o‘z-o‘zini baholash mexanizmlaridan foydalanadi. Komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq: qadriyatlarsiz bilim yo‘nalishini yo‘qotadi, bilimsiz qadriyat amaliy ifodasini topa olmaydi, faoliyat esa har ikkalasining sinov maydonidir.

Kompetensiyaviy nuqtai nazardan kasbiy-axloqiy madaniyatni egallash jarayoni uch yo‘nalishda kechadi: kognitiv (madaniy qadriyatlar mohiyatini anglash), qadriyatli-yo‘naltirilgan (madaniy merosni emotsional idrok etish va shaxsiy qadriyatga aylantirish) va kommunikativ-faoliyatli (xulq-odob madaniyatini namoyon etish, emotsiyalarni adekvat ifodalash). Pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari (gnostik, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy va korreksion-rivojlantiruvchi komponentlar) ham aynan shu yo‘nalishlarda kasbiy-axloqiy madaniyatni namoyon qilish sohasi hisoblanadi.

Baholash mezonlari. Kasbiy-axloqiy madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlarni qo‘llash maqsadga muvofiq: kasbiy-axloqiy madaniyatning shaxs va faoliyat uchun ahamiyatini anglash; pedagogik kasbga barqaror ijobiy munosabat; tushunchalar tizimi va nazariy asoslarini bilish; faol kasbiy-axloqiy pozitsiyani egallash; zarur axloqiy fazilatlarning shakllanganligi; kasbiy tafakkur va istiqbolni ko‘ra bilish; kasbiy-axloqiy xatti-harakatlar amaliyotini egallash; ijtimoiy-pedagogik faollik va kasbiy-axloqiy rivojlanishni shaxsiy ehtiyoj sifatida anglash. Bu mezonlar komponentlar bo‘yicha guruhlanib, shakllanganlik darajalarini aniqlash uchun asos bo‘ladi.

Rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar. Kasbiy-axloqiy madaniyat tashqi va ichki omillar ta’sirida shakllanadi. Tashqi omillarga kasb xususiyatlariga muvofiqlik, o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining sifati, ta’lim jarayonining tashkil etilishi kiradi. Ichki omillar o‘qituvchining psixofiziologik va psixologik xususiyatlari, motivatsion va qadriyatlar sohasi bilan bog‘liq. Motivatsiya manbalari ichki, tashqi va shaxsiy manbalarga bo‘linadi: ichki manbalar bilimlarni egallash ehtiyoji bilan, tashqi manbalar jamiyat talablari

bilan, shaxsiy manbalar esa qadriyatlar tizimi, barqaror ustanovkalar va kasbiy g‘oyalar bilan belgilanadi. Emotsional soha ham muhim omil: his-tuyg‘ular bilan boyitilgan material puxtaroq o‘zlashtiriladi.

Muhokama. Kasbiy-axloqiy madaniyatning uch komponentli tuzilmasi Slastenin va Isaev tomonidan ajratilgan kasbiy-pedagogik madaniyat tuzilmasi bilan mantiqan hamohang, ammo unda axloqiy mazmun va deontologik jihat ustuvor ahamiyat kasb etadi. TUNING loyihasidagi bilim, amaliy va qadriyatli komponentlar bilan taqqoslanganda, kasbiy-axloqiy madaniyatning kognitiv komponenti bilim komponentiga, faoliyatli-ijodiy komponenti amaliy komponentga, aksiologik komponenti qadriyatli komponentga mos keladi. Bu moslik kasbiy-axloqiy madaniyatni kompetensiyalar tizimiga tabiiy ravishda kiritish va uning rivojlanishini standart talablari doirasida boshqarish imkonini beradi. Ayni paytda, mezonlarning amaliy diagnostik vositalarga aylantirilishi va ularning miqdoriy tekshiruvi keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Birinchidan, kasbiy-axloqiy madaniyatni “tayyorlik” kategoriyasi bilan bog‘lab talqin qilish ilmiy jihatdan asosli bo‘lib, uni sub’ektga xos integrativ xususiyatlar majmuasi sifatida ta’riflash mumkin. Ikkinchidan, uning kompetensiyaviy asoslari kompetentlilikning integrativ tabiati va TUNING loyihasidagi uch komponentli tuzilma bilan mos keladi. Uchinchidan, pedagogika ta’lim yo‘nalishi Davlat ta’lim standartida 36 ta kasbiy kompetensiyadan 5 tasi kasbiy-axloqiy madaniyatni bevosita rivojlantirishga yo‘naltirilgan. To‘rtinchidan, kasbiy-axloqiy madaniyat aksiologik, kognitiv va faoliyatli-ijodiy komponentlardan iborat bo‘lib, ular tashqi va ichki omillar ta’sirida o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanadi; ularni baholash uchun aniq mezonlar tizimi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.02.2020 й., 07/20/4623/0220-сон, 13.06.2020 й., 07/20/4749/0758-сон.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.

3. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son.

5. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya.– “Fan va texnologiya” nashriyoti, T.: 2013- y 3. 2. N.Muslimov,

M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y

6. Sultonov, Sherzod Elmuratovich. "PEDAGOG-KADR KOMPETENSIYASI TA’LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH ZARURIYATI SIFATIDA." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.7 (2022): 60-63.

7. Sultonov, Sherzod Elmuratovich. "PEDAGOGIKADA KOMPETENTSIYA TUSHUNCHASI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.7 (2022): 55-59

8. Yuldashev, Elyorjon. "Secondary School Students Independent Education." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNO Yuldashev,